

RUBOIY TAHLILI: VAZN, QOFIYA VA SHE'RIY SAN'ATLAR

f.f.f.d. (PhD) Allamberganova Nodira Gulmurzayevna, NukusDPI O'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti v.v.b.

Tajibayeva Dilfuza, Nukus DPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mumtoz adabiyotda keng qo'llangan aruz vazni, mazkur vazn bilan bog'liq nazariy qoidalar va aruz vaznidagi asarlarni tahlil qilish kabi masalalar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: Aruz vazni, hijo, rukn, bahr, ruboiy, qofiya, tahlil.

Aruz vazni o'zining murakkabligi va mukammalligi bilan ajralib turadi. IX asrda arab adabiyotida paydo bo'lgan mazkur vazn keyinchalik fors adabiyotida va turkiy adabiyotda ham qo'llanila boshlandi. Turkiy adabiyotda aruz vaznining turli xil jozibador vaznlarida g'azal, ruboiy, tuyiq, muxammas, qit'a kabi she'riy asarlar paydo bo'la boshladi. Ayniqsa, XIV asrga kelib, ijod ahli aruzning imkoniyatlaridan keng foydalandilar va xilma-xil vaznlarda xush ohang asarlar bitdilar. Bu davrga kelib aruz nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy risolalar ham paydo bo'la boshladiki, bu aruz vaznining qo'llanilish imkoniyatini yanada kengaytirdi. XV asr turkiy adabiyot va turkiy aruz rivojining cho'qqisi bo'ldi deyish mumkin. Bu davrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyotning yirik vakili Alisher Navoiy aruz vaznining xilma-xil o'lchovlarida she'riy asarlar yozibgina qolmay aruz ilmiga bag'ishlangan "Mezon-ul avzon" asarini yozib turkiy aruzning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Alisher Navoiy aruz haqida shunday yozadi: "Bas sobit bo'ldikim, aruz fani sharif fandur. Va bukim, bu ilmni nechun "aruz" dedilar, muxtalif aqvol bor. Ul jumladin, biri bila iktifo qililur. Va ul budurkim, Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani "Aruz" derlar ermish va ul vodida arab uylarin tikib, jilva berib, bahog'a qo'yururlar ermish. Va uyni arab "bayt" der"[1:137]. Ko'rinadiki, Aruz ilmining asoschisi arab adabiyotshunosi va musiqashunosi Halil ibn Ahmad bo'lib, u aruzning eng dastlabki qoidalarini ishlab chiqqan olim sifatida aruz atamasini birinchi bor qo'llagan va bu atama arab uylarini sotuvga qo'yadigan vodiy nomidan olingan. Aruz ilmidagi asosiy juzvlardan bo'lgan "bayt" atamasi arabchada uy degan ma'noni anglatishini ham keltirib o'tadi.

Aruz tizimida sakkizta asliy ruknlar mavjud bo'lib, buni barcha aruzshunos olimlar e'tirof etadilar va Mustaqillik davri aruzshunoslaridan biri Dilnavoz

Yusupova "Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari" asarida ham asl ruknlarni sakkizta deb keltiradi[3: 20].

№	Asliy ruknlar nomi	Chizmasi	Hosil qilingan bahr nomi
1	Foilotun	-V - -	Ramal
2	Mafoiylun	V - - -	Hazaj
3	Mustaf'ilun	- - V -	Rajaz
4	Fauvlun	V - -	Mutaqorib
5	Foilun	- V -	Mutadorik
6	Mutafoiyilun	V V - V -	Komil
6	Mafoilatun	V - V V -	Vofir
8	Maf'uvlotu	- - -V	Bahr yasamaydi

Yuqoridagi jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ldiki, asliy ruknlardan maf'uvlotu rukni alohida holatda bahr hosil qilmasa-da, lekin aruz tizimida o'z o'rniga ega. Chunki bu rukn murakkab bahrlarni hosil qiluvchi asosiy rukn sifatida qatnashadi.

Turkiy aruzda mazkur ruknlar asosida hosil qilingan bahrlardan hazaj va ramal bahrlari keng qo'llanilgan. Ruboiy janrining hazaj bahrida va tuyuq janrining ramal bahridagina yozilishi fikrimiz isbotidir.

Arabchadan tarjima qilinganda «ruboiy» so'zi «to'rtlik» degan ma'noni anglatishiga qaramay, har qanday to'rt misralik she'r ruboiy bo'lavermaydi. Sharq xalqlari mumtoz she'riyatida keng tarqalgan ushbu janr namunalari faqat hazaj bahrida, hazajning ham axrab va axram shajaralarida yaratiladi. Ruboiy vaznlarining umumiy miqdori qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, 24 tani tashkil qiladi. Ularning 12 tasi axrab shajarasiga, qolgan 12 tasi esa axramga doxildir. Har qanaday ruboiy mana shu 24 vaznning birida yozilishi shart. Bu, albatta, shoir uchun qiynichilik tug'diradigan cheklovdir. Ruboiy yaratishni nisbatan osonlashtiruvchi omil ham borki, bu to'rt misraning har qiyssisi mavjud vaznlarning istagan birida yaratilishi mumkin.

Alisher Navoiyning "Ey, sendin o'lub bag'rim ham ko'ksun dog'" deb boshlanuvchi ruboiysi shoir ijodining eng go'zal namunalaridan biri. Ruboiy to'rt misradan iborat bo'lgan lirik turning janri. Forsiylar uni "dubaytiy" (ikki bayt) deb atashlari haqida hazrat Navoiy aytib o'tadilar. Mazkur janr aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko'ra axram (maf'uvlun, - - -) va axrab (maf'uvlu - -V) shajaralariga bo'linadi. Har bir shajara (lug'aviy ma'nosi "daraxt")da 12 tadan vazn mavjud

bo‘lib, ularda mafo‘iylun ruknining asli hamda quyidagi zihof va furu‘lari ishtirok etadi.

	Rukn	Taqte	Zihofi		Rukn	Taqte	Zihofi
1	Mavoiylun	V – – –	Solim	6	foilun	– V –	Ashtar
2	maf‘uvlu	– – V	Axrab	7	fauvl	V – –	Mahzuf
3	maf‘uvlun	– – –	Axram	8	faul	V –	Majbub
4	mafoilun	V – V –	Maqbuz	9	fa’	–	axrami majbub
5	Mafoiylu	V – – V	Makfuf	10	fo‘	~	Azall

Demak, ruboiy janrida bitta asl rukn va to‘qqizta o‘zgarishga uchragan ruknlar (jami o‘nta) rukn ishtirok etadi. Mazkur ruknlarning turli tartibda takrorlanishidan har bir shajarada o‘n ikkita va jami yigirma to‘rtta bahr hosil qilinadi.

Ruboiyning birinchi misrasi “*Ey, sendin o‘lub bag‘rim ham ko‘ksim dog‘*”-, deb boshlanadi. Misra boshida “ey” undov so‘zi undalma vazifasini bajargan. Bilamizki, undalma tinglovchiga murojaat etish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birga turli sub‘ektiv ma‘no ifodalaydi. Masalan, “Ey, tardamoni yuzi qaro”, “*Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, qudratli va jafokash Vatanim*”. Ko‘rinadiki, “ey” undov so‘zi nutqda turli xil ma‘no semalariga ega bo‘lmoqda.

“Bag‘ir” va “ko‘ks” bir biriga yaqin tushunchalar, lekin ular sinonim emas. Chunki “bag‘ir” asl ma‘nosida insonning faqat ichki a‘zosini ifodalaydi “ko‘ks” leksemasi esa insonning tashqi a‘zosini ham ifodalashi mumkin. Masalan, “*ko‘ksiga bosh qo‘ymoq*” birikmasi tarkibidagi “*koks*” so‘zi bilan “*ko‘ksim dog‘*” birikmasi tarkibidagi mazkur leksemaning boshqa-boshqa ma‘noda qo‘llanilayotganini anglash mumkin. Shuningdek, birikma tarkibidagi “*dog‘*” leksemasi ham polisemantik xarakterga ega bo‘lib, mazkur birikmada okkazonal ma‘no kasb etgan.

Ikkinchi misra “*Ko‘nglum o‘t-u, ul o‘tg‘a to‘kub ashkim yog‘*” shaklida ma‘noviy butunlik kasb etadi. Mumtoz adabiyotda “*ko‘ngil*” poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan va turlicha ma‘no kasb etadi. Ayniqsa, tasaffuviy istiloh sifatida keng qo‘llanadi. “*Mening ko‘nglimki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur*”, “*Ko‘ngluma qilsam g‘azab...*”, “*Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay...*” “*Ko‘ngliga qo‘l solmoq*” kabi juzvlar aloqadorligida turli xil ma‘no ifodalangan.

“*Ko‘ngil*” leksemasi mazkur matnda “*o‘t*” leksemasi bilan birgalikda lirik qahramonning ishq dardidan hosil bo‘lgan bag‘ri va ko‘ksidagi dog‘ning o‘t-olovga aylanganini ifodalashga xizmat qiladi. *Ashk* - *ko‘zyoshning* olovga xuddi yog‘ sepgandek ko‘ngil dardini kuchaytirib yuborayotganini sezish mumkin.

Uchinchi misra *“Tan o‘lsa g‘aming ichra joningg‘a fido”*, shaklidagi juzvlar harakatidan iborat. Lirik qahramon yor uchun tanasini qurbon qilmoqchi. Chunki tan bu - jasad. Jon esa ruhdir. Jon-ruh qurbon qilinmaydi u abadiydir. Tan ya‘ni jasadni qurbon qilish mumkin. Tasaffufda tanani qurbon qilib ruhni ozod qilish tushunchasi mavjud bo‘lib, bu ham jon va jasadning boshqa - boshqa tushunchalar ekanini ifodalaydi. Biroq jon va jasad tushunchalarini ayro tasavvur qilish qiyin.

Shu o‘rinda birinchi va uchinchi misralardagi “o‘lmoq” leksemasi omonim sifatida qo‘llanilayotganini sezish mumkin. Birinchi misrada *“sendin o‘lub”* birikmasida “bo‘lmoq” ma‘nosini ifodalasa, uchinchi misrada “o‘lmoq, vafot etmoq” ma‘nosida qo‘llangan.

Ruboiy *“Jon kuysa muhabbatingda sen bo‘lg‘il sog‘”* misrasi bilan yakunlanadi.

Mazkur ruboiy xosa (oddiy) ruboiy bo‘lib qofiyadosh so‘zlar “dog‘”, “yog‘”, “sog‘” so‘zlaridan iborat, ular tovushdosh so‘zlar sanaladi. Mazkur so‘zlarda “d”, “y”, “s” tovushlari ma‘no farqlash vazifasini bajarmoqda. Qofiyadosh so‘zlar oxiridagi “g” tovushi raviy deb ataladi va qofiya raviy bilan tugagani uchun muqayyad qofiya deyiladi.

Mazkur ruboiyning sujet unsurlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Ey, sendin o‘lub bag‘rim ham ko‘ksun dog‘, (tugun)

Ko‘nglum o‘t-u ul o‘tg‘a to‘kub ashkim yog‘. (voqea rivoji)

Tan o‘lsa g‘aming ichra joningg‘a fido, (kulminatsiya)

Jon kuysa muhabbatingda sen bo‘lg‘il sog‘. (poetik hukm)

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ruboiy aruzning axrab yoki axram shajarasida yozilmog‘i kerak. Shu o‘rinda mazkur ruboiyning vaznini aniqlashga harakat qilamiz.

Birinchi misra:

Ey, sendin o‘lub bag‘rim ham ko‘ksun dog‘,

-- v v ----- ~

Mafuvlu/ mafoiylun/ mafuvlun/ fo

Ushbu misrada “vasl” hodisasi kuzatilgan. Ya‘ni “sendin” so‘zining oxirgi undosh tovushi “n” birinchi hashvning birinchi hijosiga qo‘shilib talaffuz qilinadi va axrabi (solimi) axrami azall vaznini hosil qiladi.

Ikkinchi misra:

Ko‘nglum o‘t-u ul o‘tg‘a to‘kub ashkim yog‘.

-- v v -- v v ---- ~

Mafuvlu/ mafoiylu/ mafoiylun/ fo

Axrabi makfufi solimi azall.

Uchinchi misra:

Tan o'lsa g'aming ichra joningg'a fido,

-- v v - - - - - v v ~

Mafuvlu/ mafoiylun/ mafuvlu/ fauvl

Axrabi solimi axrabi axtam

To'rtinchi misra:

Jon kuysa muhabbatingda sen bo'lg'il sog'.

-- v v - v - v - - - ~

Mafuvlu/ mafoiylu/ mafoiylun/ fo

Axrabi maqbuzi solimi azall

Ma'lum bo'ldiki, ruboiyning to'rt misrasi to'rt xil vaznda bitilgan ekan. Tabiiyki uning o'qilishi ham to'rt xil vaznga asoslanadi.

E'tibor qilinsa, ruboiyning har bir misrasida to'rtta rukn ishtirok etgan. Bilamizki, puknlar soni misra emas, baytga ko'ra aniqlanadi. Mazkur ruboiyning har bir misrasida to'rtta va baytda sakkizta rukn ishtirok etgan ya'ni musamman shaklida. Bu ham ruboiyning yana bir qonuni deyish mumkin. Chunki ruboiy doimo hazaj bahrida yoziladi va har bir baytda sakkizta rukn ishtirok etadi. Ruknlar joylashuv o'rniga ko'ra ham farqlanadi. Masalan:

Sadr hashv hashv aruz

Ibtido hashv hashv zarb.

Ba'zan hashv ikkita bo'lsa "hashvayn" deb ham yuritiladi. Bu esa uning ruknlarini aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mazkur ruboiy xosa ruboiy bo'lib, a, a, b, a shaklida qofiyalangan. Aruzning axrab shajarasida yozilgan. Undagi bag'ir, ko'ngil, jon, tan (jism) tushunchalari ifodalaydigan poetik hukm Navoiyning "*Jong'a chun dermen*" g'azalidagi xulosaga juda yaqin. Ruboiyda jonlantirish (ashkim to'kub yog'), tadrij (ma'noning pag'onama pag'ona rivoji), mubolag'a (tan o'lsa g'aming ichra) kabi ma'naviy san'atlar qo'llanilgan. Mazkur ruboiy ishqiy mavzuda yozilgan bo'lib, lirik qahramonning eng ichkin kechinmalarini go'zal shaklda tarannum etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mezonul- avzon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
2. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiyat malohati. – Toshkant, 1999.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent, 2019.